

## **BOSHLANG'ICH SINFLARDA NUTQIY SAVODXONLIKNI VA NUTQIY FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH**

*Jizzax davlat pedagogika universiteti  
2 kurs talabasi Suyunova Marjona*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarda savod o'rgatish davrida o'quvchilarning nutqini o'stirish, savod o'rgatish darslari mazmuni, o'quvchilarni nutqini metodlar orqali nutqiy faoliyatini o'stirish haqida ma'lumotlar berilgan.

**Аннотация:** В данной статье представлена информация о развитии речи учащихся в ходе обучения грамоте в начальных классах, содержании занятий по грамоте, развитию речевой деятельности учащихся посредством способов речи.

**Abstract:** This article provides information on the development of students' speech during literacy training in primary grades, the content of literacy classes, and the development of students' speech activity through methods of speech.

**Kalit so'zlar:** Savod o'rgatish metodikasi, o'quvchilarni nutqini o'stirish, og'zaki vayoza nutq, unli, undosh harflar, tovushlar.

**Ключевые слова:** Методика обучения грамоте, развитие речи учащихся, устной и письменной речи, гласные, согласные, звуки.

**Key words:** Literacy teaching methodology, development of students' speech, oral and written speech, vowels, consonants, sounds.

### **KIRISH.**

Inson nutqi aloqa vositasi sifatida shaxslar o'rtasidagi o'zaro ta'sirning yetakchi shakli hisoblanadi. Ishonch bilan aytish mumkinki, faqat aniq nutq tufayli inson hozirgi paytda bo'lgan mukammal shaklga erishdi. Bundan tashqari, uzoq ming yillik evolyutsiyada ko'plab foydali ko'nikmalar va ko'nikmalarni rivojlantirishga imkon bergan mehnat faoliyati bilan bir qatorda, izchil, mazmunli nutq insoniyatga bir-biri bilan aloqa qilish kabi muhim funktsiyani amalga oshirish imkoniyatini berdi. Nutq, til va nutq faoliyati tushunchalarining tarkibiy munosabatlarini yaxshiroq tushunish uchun ushbu hodisalarni ma'lum bir tarzda ajratish kerak. Nutq o'zining asl namoyon bo'lishida nafaqat odamlarga murojaat qilish shakli, balki ma'lum nutq ma'lumotlarini bir kishidan boshqasiga etkazish vositasidir.

Respublikamizda maktabgacha ta'lim allaqachon davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Shu bois ta'lim tizimining ilk bo'g'iniga doir har qanday muammo davlat miqyosida hal qilinmoqda. Jumladan, maktabgacha ta'lim tizimi tarbiyachilari bugungi kunda bolalarni maktabga tayyorlashning bazaviy dasturi hamda tajriba-sinov jarayonida yuqori baholangan o'quv-metodik materiallarga ega. Shu bilan birgalikda umumiy o'rta talim maktabida ham eng asosiy hisoblanadi ya'ni boshlang'ich sing

o'quvchilarining nutqini faoliyatini rivojlantirish nutqiy savodxonligini oshirtish maqsadida bazaviy dasturlar ishlab chiqilgan. Mazkur dasturda bolalarni jismoniy rivojlantirish, nutq va tafakkurini shakllantirish, tevarak-atrof bilan tanishtirish kabi turli masalalar qamrab olingan. Savod o'rgatish darslari dasturida ko'rsatilgandek haftada 8 soat bo'lib, 4 soat o'qish va 4 soat yozuvga ajratiladi. Savod o'rgatish 2-sentabrdan dekabrning oxirigacha davom etadi. U 2 davrga bo'linadi:

1. Tayyorgarlik davri.

2. Asosiy davr.

3. Tayyorgarlik davri o'z navbatida 2 bosqichga bo'linadi: harf o'rganilmaydigan bosqich.unli tovushlar va undosh tovushlar, harflar o'rganiladigan bosqich. 1-bosqich uchun 10 soat dars ajratiladi. Bu bosqichning vazifasi o'quvchilarni maktab, sinf bilan, tartib intizomqoidalari bilan tanishtirish. Ularga og'zaki va yozma nutq haqida, gap, nutqning gaplardan tuzilishi, so'z, gaplarning so'zlardan tuzilishini; tovushlarning unli va undosh tovushlarga ajratilishini o'rgatish, ulardan amaliy foydalana bilish ko'nikmalarini hosil qilishdan iborat. Bu bosqichdagi yozuv darslarida o'quvchilarda daftar bilan, yozuv chiziqlari bilan tanishtirish, harf elementlarini yozishga o'rgatish, harf oralarining tengligiga rioya qilish kabi ko'nikmalar hosil qilinadi. 2-bosqichga 14 soat dars ajratiladi. Bu bosqichda unli va undosh tovushlar o'rgatiladi. Tovushni ifodalovchi harflar ko'rsatilgach harf ustida ishlanadi. Tovushlarni talaffuz qilamiz, eshitamiz, harflarni esa yozamiz, ko'ramiz, o'qiymiz. Asosiy davr uchun 90 soat dars ajratiladi. Bu davrning asosiy vazifasi bolalarni o'qishga, o'qilgan bo'g'in, so'z va gaplarni yozish va tekshirishga o'rgatadigan davr. Ta'limning davri va bosqichlariga ko'ra: tayyorgarlik davri Alifbegacha asosiy (Alifbo) davr Tayyorgarlik davridagi darslar 2 bosqichga ajratiadi. Birinchi bosqich darslarida o'quvchilar tovush va harfni o'rganishga tayyorlanadi. 1-bosqich darslari "Nutqning fonetik bo'laklarini o'rganish darslari" deb nomlanadi. 2-bosqich darslari "Unli tovush va harflar o'rganiladigan darslar" deb ataladi

jarayonidagi darslar predmetiga ko'ra 2 turga ajratiladi. 1. Alifbe darsligi asosidagi o'qish darslari. 2. Yozuv daftari asosidagi yozuv darslari. Asosiy davr o'qish darslari yangi bilim berish bermasligiga ko'ra quyidagi turlarga ajratiladi.

Yangi tovush va harf bilan tanishtiriladigan o'qish darsi. O'rganilgan tovush va harflarni mustahkamlovchi o'qish darsi. Bilimlarni takrorlash, umulashtirish darsi.

Asosiy davr yozuv darslari esa quyidagi turlarga ajratiladi. Kichik harf va bosh harf yoziladigan yozuv darsi. Kichik harflar yoziladigan yozuv darsi .Bosh harflar yoziladigan yozuv darsi. O'rganilgan bo'g'in, so'z gaplarni yozishni mashq qilish darslari. Xat savod o'rgatish jarayonida hafta oxiridagi o'qish darslarining 15-20 daqiqasi sinfdan tashqari o'qishga ajratiladi. Savod o'rgatish darslari taqmillashgan analitik-sintetik tovush metodida olib boriladi. Analitik-sintetik tovush metodi nutq haqida, nutqning gaplardan, gaplarning so'zlardan, so'zlarning bo'g'inlardan,

bo'g'inlarning tovushlardan tuzilishini o'rgatishda, so'zdan o'rganiladigan tovushni ajratib olish, uni o'rganilgan harflarga qo'shib o'qishga o'rgatishda amal qiladi. Bunday tahlil ishlari savol-javob usulida olib boriladi. Shuning uchun ham bu davrda qo'llaniladigan asosiy usul suhbat, savol-javob usuli sanaladi. Suhbat metodi o'quvchilarni faollashtiradi, nutqiy vaziyatga soladi. Savol-javob usulida darsni o'qituvchi har bir material rejasidan beriladigan savollarini tuzib olishi lozim, beriladigan savollar kelgusi bilimlar uchun zamin hozirlashiga ham e'tibor qaratilmo'g'i zarur. Rasmlar yuzasidan tug'ilgan savollar 4-5 tadan oshmasligi, 3-4 so'zli bo'lishi lozim. Suhbat usuli darsning hamma bosqichida o'tilganlarni so'rash, Yangi bilim berish, yangi mavzuni mustahkamlash, tekshirish, yakunlash jarayonida qo'llaniladi. Ko'rgazmalik metodi. Bu usul chex pedagogi Komenskiy ta'limning asosiy qoidasi deb biladi. «Sinfga surat olib kirishing bilan soqov ham tilga kiradi. Ta'lim jarayonida mavhum tafakkuri yaxshi rivojlanmagan boshlangich maktab yoshidagi o'quvchilarning barcha sezgi organlari ishtirok etishi kerak: ko'rish, eshitish, xatto ta'm bilish sezgisi ham, chunki ular aniq narsa, predmet-hodisaga qarab fikrlaydi. Ta'limda o'quvchilarning bu xususiyatlarini hisobga olish zarur. Alifbe darsligida mazmunli va predmet rasmlar, gap, bo'g'in, so'zga oid nusxalar tabiat qo'ynida dars o'tish, muzeylarga sayohat o'tkazish darslarini ko'rgazmali usullarda o'tkazilgan dars sanaladi. Savod o'rgatishda tushuntirish va bayon qilish usullari ham qo'llaniladi. O'qituvchi nutq madaniyatiga e'tibor berishi, sodda ravon ifodali qilib so'zlashi, materialni izchil qat'iy reja asosida bayon qilish lozim. Shuning uchun o'quvchilarning tinglab eshitish imkoniyatlarini xisobga olish zarur.

Tushuntirish va bayon qilish usuli yangi mavzuni yoki mavzuning tushunmay qolgan o'quvchilarga qayta o'rgatishda qo'llaniladi. Bulardan tashqari reprodaktiv metoddan ham foydalaniladi. O'quvchilar uchun tayyor gap so'z bo'g'in tovush nusxalari beriladi. O'quvchilar nusxaga qarab shuncha so'zli gap tuzadilar, uning birinchi so'zi qanday harf bilan yozilishi, oxiriga qanday tinish belgi qo'yilishini izohlaydi. Grammatika to'g'ri yozuv darslarida tilni maxsus o'rganish bilan bolalar alohida tovush, bo'g'in, so'z va gaplarni eshitishga va talaffuz qilishga o'rganadilar. Ular narsa, harakat, belgi bildirgan ko'pgina so'zlarni shuningdek, tovush, harf, bo'gin so'z o'zak, qo'shimcha, so'z turkumi ot, sifat, fe'l, son, olmosh, bog'ovchi, gap, gap bo'laklari darak gap, so'roq gap, undov gap, singari juda ko'p yangi atamalarni bilib oladilar. Tovush nusxali so'zlar ham o'quvchilarni fikrlashga, izlanishga da'vat etadi. Yozuv darslarida asosan reprodaktiv metodda ish olib boriladi. O'quvchilar daftar va doskadagi ko'rgazmali qurollardagi namunaga qarab nusxa ko'chiradilar Reprodaktiv metod o'qituvchining tushuntirishlari asosida amal qiladi. Reprodaktiv metod o'qituvchining tushuntirishlari asosida amal qiladi. Chunki o'qituvchi har bir harfni qaerdan boshlanishi, qanday davom ettirilishi, uning boshqa harfga ulanishi haqida tushuntirish beradi. Biroq nusxa ko'chirish avtomatik nusxa ko'chirishga aylanib

qolmasligi lozim. O'quvchiga yozadigan bo'g'in, so'z va gapi oldin o'qitilishi kerak. O'quvchi harflarning ulanishini kuzatib uzlashtirishi zarur. Savod o'rgatish darslarining asosiy vazifasi o'quvchilarga tovush va harfni tanishtirish, ularning to'g'ri talffuzini o'rgatish orqali bolalarda to'g'ri ongli ifodali o'qish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Tayyorgarlik davri o'qishga o'rgatish uchun zamin xozirlaydi. Bu davrda bolalarda o'zgalalar nutqini eshitish diqqatni to'plash til birliklarini (tovush, bo'g'in, so'z, gap) farqlash, ajratish ularining vazifalarini aniqlash kabi xususiyatlar shakllanadi. Bular o'quvchilarining o'qishni muvoffaqiyatli egallashlariga yordam beradi. So'z asos qilib olinadi. Analitik mashqlar yordamida o'rganiladigan tovush ajratib olinadi. O'qituvchi ot rasmini ko'rsatadi o'quvchilar uning nomini so'zni aytadi. O tovushini cho'zib aytadi va o'quvchilardan qaysi tovushni cho'zib aytayotgani so'raladi. O tovushli so'zlar o'ylab toptiriladi. O harfi ko'rsatiladi. O'rganilgan harflar ichida bo'g'in o'rganiladigan harf aralashtirilib qo'yiladi, bolalar uning ichidan tanish harfni ajratadilar so'ng o'qituvchi bu harf ifodalaydigan tovushni aytadilar. Shu harfni kesma harflar ichidan topib, kitob sahifasidan rasmlil alifbodan ko'rsatadilar. Shu tariqa tovush harf bilan tanishtirilgach o'qishga o'rgatish ustida ishlanadi. O'qituvchining namunali o'qishidan sung xor bilan o'qish , yakka o'qishdan shivirlab o'qishdan foydalaniladi. Ayniqsa sekin o'qiydigan o'quvchilar bo'lgan sinflarda xor bilan o'qitish o'qishni tezlashtiradi. Matndagi so'zlarni sinf doskasida bo'g'inlarga bo'lib yozish o'rganilgan harflarni hisobga olgan holda qo'shimcha so'z birikmalari gaplar tuzib yozish va o'qitish usulidan ham foydalaniladi. Alifbe sahifalarida bo'g'in tuzilishi murakkablashib boradi. Shuning uchun o'qituvchi har bir bo'g'in tuzilishining murakabligiga qarab ish usullarini belgilab olishi zarur. Masalan: 3 tovushdan tuzilgan, 4 tovushdan tuzilgan bo'g'inlarni o'qishga o'rgatish ham o'ziga xos qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Bunda olam, Mannon tipidagi bo'g'inlarda –o-la:m, ma:n-no:n tarzidagi qo'shimcha chiziqdan, bod-ring, do'st tipidagi bo'g'inga ring, do'st tarzidagi qo'shimcha chiziqlardan foydalaniladi.

Demak, ko'rgazmali vositalarning va interfaol metodlarning o'quvchilarni to'g'ri talaffuzga, bo'g'inlab o'qishga, ifodali o'qishga, fikrlashga o'rgatishda, nutq o'stirishda ahamiyati katta.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Umumiy o'rta ta'limning DTS o'quv dasturi.[1]
2. Q.Abdullayeva va boshqalar. "Savod o'rgatish metodikasi". "O'qituvchi" 1996.[2]
3. T.Jabborova. X.G'ulomova. G.Eshurdiyeva. 1-sinfda savod darslari.[3]
4. Ona tili o'qitish metodikasi. Boshlang'ich ta'lim fakulteti talabalari uchun darslik. S.matchanov, X.G'ulomova, Sh.Yo'ldosheva,Sh.Sariyev.- Toshkent:Bayoz, 2022. – 304 bet. 241 bet.
5. <https://uz.scienceforming.com/>